



TEXNOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNIKALARDAN FOYDALANISH VA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING KOMPETENSIYAVIY VAZIFALARI

Ravshanova Dilshoda Mengziyoyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion metodlar o'qish motivatsiyasini shakllantirishga katta yordam beradigan texnologiyalar haqida batafsil bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetensiyaviy yondashuv, texnologiya fani, pedagogik mexanizm, intellektual qobiliyat, axborotli o'qitish.*

Kirish:

Maktab hayotiga kirish bilan texnologiya sohasi kengayib bormoqda, bu yerda umuman qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, qarama-qarshilik maktab va uy ishida farqdan kelib chiqadi. Lekin, boshlang'ich sinf o'quvchining ishiga bo'lgan qiziqish texnologiya faoliyatining xilma-xilligini oshirish bilan ortadi. Turli xil jismoniy va intellektual faoliyat, takomillashgan texnik fikrlash, mehnatga ijobiy munosabat, mehnat jamoasida muloqot – bularning hammasi texnologik ta'limni amalga oshirishning asosiy pedagogik mexanizmlari sanaladi.

Ma'lumki, kompetensiyaviy yondashuv yordamida texnologiya fanini o'qitishda o'rgatiladigan har bir qoida, har bir jarayon birligi boshlang'ich sinf o'quvchi xotirasida aniq saqlanishi isbotlangan. Tabiiyki, kompyuterning boy grafikasi, odatlarga doir video ko'rinishda hosil qilib bera olishi pedagogik mexanizm orqali texnologiya fanini o'qitishni samarali usullardan biriga aylantiradi.

Aqliy mehnat faoliyati bolada ijodiy posilkalarni, fidoyilikni, mehnatga ijodiy munosabatni rivojlantiradi. Texnik fikrlash samarali mehnatni tashkil qilishda texnologik bilim va tajribani to'plash hamda, o'z texnologiya faoliyatining natijalarini baholash uchun kerakdir. Texnologiya faoliyati boshlang'ich sinf o'quvchilarning qobiliyatlari, ko'nikmalari, mehnat odatlarini belgilaydi va jismoniy stressni bartaraf qiladi. Texnologiyaga munosabat mehnatning uyushgan faoliyati natijasida ifodalanadi.

Eng yangi avlod texnologiyalarining rivojlanishidagi kechikish milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini pasaytirishi, shuningdek, o'sib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitida uning zaifligini oshirishi mumkin. Shuningdek, sanoatda kutilayotgan yangi texnologik o'zgarishlar sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitish o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyati va texnologik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda maktabdan keyingi ta'lim bosqichi yoki mustaqil



hayotga qadam qo'yishda lozim bo'ladigan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashlarni takomillashtirishda asosiy yechim bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion metodlar o'qish motivatsiyasini shakllantirishga katta yordam beradigan texnologiyadir. Biz hozir boshlang'ich sinflarda qo'llanadigan pedagogik mexanizmlari bilan tanishib chiqamiz.

1. «Rasmi rebus» usuli. Mazkur mexanizm asosan texnologik darsning "Mustahkamlash" qismida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu mexanizm yordamida o'quvchilar shoir ijodiga doir asarlari rasmlarga qarab aniqlashi kerak bo'ladi. Masalan, rebusda baliqcha, hovuz, tilla tanga rasmlari aks etgan bo'lsa, demak bu yerda shoirning «Tilla baliqcha» she'ri tasvirlangan bo'ladi. Bu bolalarda aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishda qo'l kelishi mumkin.

2. «Tezkor savol-javob» metodi. Ushbu metodni biz darsning "O'tilgan mavzuni takrorlash va uyga vazifa so'rash" qismida qo'llashni lozim ko'rdik. O'quvchilarga o'tgan mavzun yuzasidan savollar beriladi. O'quvchilar esa savollarga tezkorlik bilan javob berishlari kerak bo'ladi. Bunda o'quvchilar javoblarini yozma tarzda berganlari maqsadga muvofiq, chunki bunda ularning o'z sheriklarining javoblarini o'zlashtirishi inobatga olinadi.

3. «Qiziqarli krossvord» metodi. Ushbu metod orqali o'quvchilar darsning "Yangi mavzu bayoni" qismida olgan bilimlarini mustahkamlashda qo'l kelishi mumkin. Ya'ni, bunda sinfdagi o'quvchilar guruhlarga bo'lingan holda ishlasalar samaraliroq bo'ladi.

4. "Loyiha" metodi. Mana shu metod biz darsning «Yakuniy qismi»da qo'llansa yaxshi bo'lardi. Chunki, texnologiya fani darslikdagi o'tilgan o'qish uchun berilgan ma'lumotlar nisbatan kam hajmda hamda dars vaqtining chegaralanganligi bois, o'quvchilar keng va to'liq ma'lumotlar olishi qiyin bo'lishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda ushbu usul yaxshi samara berishi mumkin. "Loyiha" metodi o'quvchilarni mustaqil o'rganishga va izlanishiga turtki bera oladigan metoddir. O'qituvchi dars yakunida o'quvchilarga qiziq bo'lgan mavzuni o'rtaga tashlaydi va sardori tayinlanadi. Keyingi texnologiya darsgacha ularga berilgan topshiriqlar bo'yicha ma'lumotlar topish, so'ngra taqdimot loyihasi tayyorlash vazifasi yuklatiladi.

Texnologiya fani tamoyillari tizimiga: texnologiya fanining milliy yo'nalganligi, texnologiya fani va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, mehnat bo'yicha iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilar. Jamiyat talab qilayotgan uzluksiz ta'limga tegishli bu qonun-qoidalar, texnologiya fanini o'qitish, bilim berish, ya'ni texnologiya fani jarayoniga samarali ta'sir qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinflarda texnologiya sohasida nazariy bilimlarni amaliyot bilan, turmush tajribalari bilan bog'lab olib borish mehnat ta'limining yetakchi qoidalaridan sanaladi. Texnologiya fani va tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng dastlab, nazariya bilan amaliy ishlarning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina o'quvchi o'rganayotgan o'quv materiallarning tub mohiyatini tushunib yetadi va mustaqil faoliyatda, amaliy ishlarda ulardan foydalana oladi.



Buning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmoq lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarga texnologiya fani jarayonini ko'rgazmali tashkil qilish kerak. Ham eshitish, ham ko'rsatish orqali o'quv materiallarini idrok etish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarni turmushdagi zaruriyatini anglab yetishlariga asos soladi, diqqatni barqarorlashtiradi. Shuning uchun texnologiya fanida ko'rgazmali materiallar o'rganilayotgan mavzuning mazmuniga xos kelishi, o'quvchining yoshi va bilim darajasiga muvofiqlashgan bo'lishi, shuningdek ulardan foydalanishning samarali yo'l va vositalar ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

Texnologiya fanida bilimlar turli yo'l vositalari yordamida puxta o'zlashtirgandagina, u mustahkam esda qoladi, bu esa o'quv materiallarini ongli o'zlashtirishga, nazariya bilan amaliyotni bog'lashga, ko'rsatmalikga amal qilishga va bilimlarni takrorlash orqali mustahkamlashga bog'liqdir. Texnologiya fanining bosh maqsadi esa bilimlarni tizimli va puxta o'zlashtirishdir.

Texnologiya fani va tarbiyasini tashkil qilishda jamoa asosidagi mehnatni uyushtirish dolzarb masalalardan biridir. Zero, jamoa ishtirokida o'tkazilayotgan mehnat jarayonida o'quvchilarda do'stlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam va hamkorlik, jamoa mehnat samaralaridan quvonish kabi xislatlar tarbiyalanib boradi. Ma'lumki, ularda tashabbuskorlik, tashkilotchilik, mehnatga ijodiy yondashish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish singari axloqiy sifatlarning rivojlanishiga poydevor qo'yiladi. Boshlang'ich sinflarda texnologiya jarayonida o'quvchilarda texnologiya madaniyatining unsurlarini hosil qilib borish asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Texnologiya madaniyati - bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo'lish, uni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil qilishi, ish o'rnini ozoda tutish, mehnat qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo'lishiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat ko'rsatkichidir. Texnologik madaniyati tushunchasi o'zida yana o'quvchining mustaqil harakat olib borishini, mehnat qilishi va dam olishini to'g'ri tashkil eta olishni ham aks ettiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida texnologiya fani dasturi talablariga muvofiq o'quv dasturi mazmuni belgilanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi 1-sinf o'quv dastur mazmunini shakllantirishi uchun o'quvchilarning mehnat ta'limi bo'yicha qanday ishlarni amalga oshirib borishi, u yoki bu ishni bajarish natijasida qanday ko'nikma, bilim va malakalarni egallashlarini aniq bilishlari kerak. Ana shunday holda o'qituvchi sinf uchun shu vaqtda zarur bo'lgan materiallarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda muhimi, o'quvchilar mazkur materiallarni tayyorlash jarayonida dastur nazarda tutgan bilim va malakalarni egallab olishlarini nazarda tutishi kerak.

Kompetensiyaviy yondashuv boshlang'ich sinfda o'tiladigan har bir texnologiya darsi ta'limiy va tarbiyaviy xarakterga egadir. Ta'lim jarayoni o'z navbatida o'quvchilarga axloqiy, ma'naviy, g'oyaviy-siyosiy, texnologiya, estetik, iqtisodiy, ekologik va jismoniy tarbiyani ham berib boradi. Tajribalardan ma'lumki, pedagogik mexanizmlar yordamida tashkil topgan har qanday yaxshi dars o'quvchilarni



mazmunli va samarali bilimga ega bo'lishlarini, e'tiqod va amaliy harakatlar birikmasi sifatida esa vatanparvarlik g'oyalarini, ularning hayotiy nuqtayi nazarini, ishiga cheksiz sadoqatini shakllantiradi.

Pedagogik mexanizmlar yordamida o'qitiladigan texnologiya darslarining ahamiyati yana shundaki, dars mobaynida o'quvchilarda puxta bilim hosil bo'ladi, texnologiyaga ijobiy munosabat tarbiyalanadi va ularga texnologiya ko'nikmalari hamda malakalari singdiriladi. Boshlang'ich o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlar, shakllangan malakalar va hosil bo'lgan ko'nikmamalar ularni moddiy ishlab chiqarish sohasidagi amaliy faoliyatga va kasbni ongli tanlashga tayyorlaydi.

Zamonaviy boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi boshqa predmetlar ta'limi singari o'quvchilarni nafaqat nazariy ma'lumotlar bilan qurollantirish va bunday bilimlardan faqat hodisalar o'rtasidagi mavjud aloqalarni tushuntirishda doimo foydalanib qolishgina emas, balki texnologiya turlari bo'yicha puxta bilim berib o'quvchilarda texnologiya qilish malakalarini shakllantirib borish xarakterli bo'lib borishi kerak.

Texnologiya darsi mazmuniga qo'yiladigan muhim talablardan biri - darsning hayot, o'quvchilarning shaxsiy tajribasi, texnologiya bilan chambarchas aloqador bo'lmog'idir. Boshlang'ich sinflarda ilg'or o'qituvchilar o'quvchilarga nazariy materialni o'rgatishda ularning shaxsiy tajribasi va kuzatishlari bilan uzviy bog'lab dars o'tadilar. Berilyotgan yangi ma'lumot va shu ma'lumot bilan bog'liq boshqa materiallar aloqalari o'quvchilarning boshlang'ich tasavvurlar tizinigamantiqan qo'shiladi. Bu usul pedagogika va psixologiya ta'limi talabiga ko'ra, predmet nazariyasini ongli o'zlashtirish shart ekanligini bildiradi.

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarni takomillashtirish va amaliy, ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarini texnologiya darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkonini yaratadi.

Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun texnologiya fani va tarbiyasiga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Bolani mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash — bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni takomillashtirish demakdir.

Mehnatga ruhiy tomondan tayyorlash turli pedagogik mexanizmlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi jarayonlardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik tarkiblari deyiladi. Texnologiya fanini o'rganish mobaynida boshlang'ich sinfi o'quvchilar xalqimiz ruhiyatini, yashash tarzini, an'analarini tiklash



va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining kiritilishi milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining ko'p qirralari boy merosini o'rganish, o'zlashtirish va amaliy faoliyatlariga qo'llash vazifasini hal qiladilar.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida texnologiya fanining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi an'anaviy sinf-dars mashg'ulotlariga nisbatan shogird-ustoz tizimi tarbiyaviy mahsuldorligi, samaraliligi, bo'lg'usi hunarmandning shaxsiy xislatlarini rivojlanishida, ularning oilalarini moddiy ta'minlanishida hamda tarixiy qadriyatlarning yanada boyishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnat tarbiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni qo'l mehnatiga ahloqiy va ruhiy tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlar bolalarni politexnik bilim bilan qurollantirish, mehnat ta'limi jarayonida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'stirish pirovardlarida tarkib topadi. Texnologiya fani mashg'ulotlarining eng asosiy vazifalaridan biri sifatida: bolalarni mehnatga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni mehnatsevar, intizomli, har bir ishda ham o'z burchi va mas'uliyatini sezadigan, jamoaviy ishlarni qo'llab-quvvatlaydigan qilib tarbiyalash hisoblanadi. Texnologiya darslarida bolalarga ish joyini batartib va ozoda saqlab, asboblarini ayab, ehtiyotlab ishlatish, materiallarni tejab yo'llari o'rgatiladi va ularni shunga odatlantiriladi.

Texnologiya darslarining yana bir muhim vazifasi - bolalarni axloqiy tayyorlash va ularga jamoada ishlash, ijodiy tashabbus, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishni o'rgatishdan iborat. Zero, bolalarni mehnatga ruhiy tayyorlash o'ziga xos murakkab, uzoqdavom etadigan va mazmun-mohiyatiga ko'ra ko'p qirrali jarayon bo'lib, u bolalarni butun mehnat ta'limi va tarbiyasiga singib ketadigan omillardan biri hisoblanadi. Omillarning har biri garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, mehnatga ahloqiy tayyorlashga juda yaqindir.

Texnologiya fani o'qituvchisi ta'lim-tabiya samaradorligini oshirishda, avvalambor, o'zining yuksak mahoratiga, ish mahorati va qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi mahorati qanchalik yuksak bo'lsa bolalarga o'z fanini chuqur singdira oladi. Texnologiya fani o'qituvchisi qo'l mehnati mashg'ulotlarida bir qancha usullardan foydalanishi mumkin. Masalan, texnologiya darsida o'tiladigan har bir mavzuga doir nazariy tushunchalar amaliy ishlab bilan o'z tasdiqini topishi lozim. Bu o'z navbatida, o'sha mavzuning qiziqarli, foydali tomonlari va jamiyatda aynan o'sha mehnatning roli kattaligini, aynan shu mavzu yordamida bolalar kelajakdagi hunar yoki kasb tanlashdagi qarorini mustahkamlashga da'vat etadi.

Texnologik samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan har qanday usul o'quvchilar tomonidan egallanishi kerak bo'lgan bilimlarning yetarli darajada egallanishiga xizmat qilisi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilar texnologik chizmani



o'qituvchi chizgan o'lchamlari asosida emas, balki buyumni istalgan o'lchami bo'yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda foydalana olsinlar.

O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarga aynan bayon etilayotgan buyum emas, balki o'z so'zlari bilan buyumning bajarilish texnologiyasini yoddan bayon etishlari talab qilinadi. Biroq ko'pchilik o'qituvchilar tajribasida asosiy o'rinni hali ham namuna, tayyor ko'rgazma bo'yicha ishlash usullari egallamoqda. Vaholanki, hozirgi zamon maktablari mehnat darsning zamonaviyligini oshirdi, takomillashtirdi va unga sayqal berdi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, demak umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda qiziqishlarni o'rganish. T., TDPU. 2008.
2. Bo'tayeva. H "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy taraqqiyot shakllanishining psixologik xususiyatlari". T.: 2004.
3. Qodirov B.F., Yuldoshev U.Y. Ta'limni texnologiyalashtirishga oid «Pedagogik ta'lim».-T.: 2000.
4. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.2004.
5. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o'qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015.
6. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qollanma. T.; TDPU. 2007.